

Reja:

- 1) Narxdagi yondashuvlar
- 2) Narxning vazifalari
- 3) Narxning turlari
- 4) O'zbekistonda narx siyosati

- Klassik yondashuv (A.Smit,D.Rikardo)--
Narx-tovar qiymatining puldagi ifodasi
- Hozirgi zamon neoklassik yondashuv
(A.Marshall)-- Narx-tovarlar va xizmatlarning
me'yoriy nafliligi, ularga sarflangan ishlab
chiqarish xarajatlari hamda talab va taklif
nisbatini baholash vositasi bo'lib ularga
to'lanadigan pul miqdorini ifodalaydi.



- Neoklassik yondashuv-- Narx-tovarlar nafliligini baholash vositasi.
- Narx - talab va taklifning muayyan nisbatida, tovar (xizmat)ni ishlab chiqarishga ketgan iqtisodiy resurs xarajatlari hamda uning nafliligining pul ko'rinishida ifodalanishidir.



Narxning vazifalari

- Qadr-qimmatni o‘lchash-- Tovarni ishlab chiqarishga qilingan xarajatlar, olingan natijalar va uning nafliligi narx yordamida hisobga olinadi.
- Hisob-kitob qilish-- Turli xil majburiyatlarni (ishlab chiqaruvchi bilan iste’molchi hamda bank va soliq muassasalari o‘rtasida) amalga oshirishda hisob-kitob qilish vazifasini bajaradi.




- Muvozanatlikni ta'minlash-- Bunda narx talab va taklifga ta'sir ko'rsatish orqali ularni muvozanat holatiga keltiradi.
- Taqsimlash-- Narx vositasida daromadlar, mahsulotlar va iqtisodiy resurslar mulkdorlar, tarmoqlar, sohalar hamda hududlar o'rtasida taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi.



- Tartibga solish-- Bozor narxlari va davlatning narx siyosati iqtisodiy faollikka ta'sir ko'rsatish orqali iqtisodiyotni tartibga solishda muhim vosita vazifasini bajaradi.
- Raqobat vositasi-- Ishlab chiqaruvchilar, resurs egalari va iste'molchilar narx vositasida raqobatlashganda u raqobat vositasi vazifasini bajaradi.
- Ijtimoiy himoya-- Narx bu vazifani tovarlar dotatsion (budget mablag'lari hisobidan arzonlashtirilgan) narxlarda sotilganda bajaradi.





Narx turlari

Ulgurji narxlar

Erkin bozor
narxlari

Chakana narxlar

Demping narx

Chegaralangan
narxlar

Nufuzli narx

Dotatsiyalangan narx

Qatiy va o`zga-
ruvchan narxlar

Narx turlari

- I. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra:
- Ulgurji narxlar--Bu narxlarda tovarlar katta partiyalarda, ko'tarasiga sotiladi. U tarkiban ishlab chiqarish xarajatlari hamda ulgurji-savdo tashkilotlari xarajatlari va foydasini o'z ichiga oladi.
- Chakana narxlar-- Bu tovarlar bevosita iste'molchilarga sotiladigan narxlardir. Chakana narx o'z tarkibiga tovarning ulgurji narxi hamda chakana savdo tashkilotlari xarajatlari va foydasini oladi.

- Xarid narxlari-- Bu narxlar davlat buyurtmasi bo'yicha ishlab chiqarilgan tovarlarga belgilanadi. Ayrim hollarda bunday narxlarga muayyan ustama va imtiyozlar bo'lishi ko'zda tutiladi.
- Demping narxlari-- Bunday narxlarda ishlab chiqaruvchilar bozordagi mavqeini mustahkamlash va raqiblarini siqib chiqarishda foydalanadi. U bozorga «suqilib kirish» narxi deb ham ataladi.



- Dotatsion narxlar-- Davlat budjeti hisobidan arzonlashtirilgan narxlardir.
- Nufuzli narxlar-- Aholining yuqori daromad oluvchi qatlami xarid qiladigan nufuzli (obro' talab) tovarlarga belgilanadi.
- Tariflar-- Turli xil xizmatlar (telefon, transport, kommunal va h.k.) bahosi sifatida foydalaniladi.



- II. Tartibga solinishi darajasiga ko‘ra:
- Qat’iy belgilangan narxlar-- Ma’muriy tarzda belgilanib, bozor kuchlari ta’sir ko‘rsatmaydi va muayyan davr davomida doimiy bo‘lib qoladi.
- Erkin narxlar-- Talab va taklif ta’siri ostida vujudga keladigan bozor narxlaridir.
- Tartibga solinadigan narxlar-- Ayrim tovarlarga davlat narxlarning yuqori (iste’molchi manfaatini ko‘zlab) va quyi (ishlab chiqaruvchi manfaatini ko‘zlab) chegarasini belgilash hamda moliya va kredit dastaklardan foydalanib, ta’sir ko‘rsatiladigan narxlardir.
- Shartnoma narxlari-- Ishlab chiqaruvchi va iste’molchi tomonidan shartnomada qayd qilingan narxlar.

- III. Amal qilish doirasi (bozor ko‘lami)ga ko‘ra):
- Hududiy (mintaqaviy) narxlar-- Muayyan hududiy bozorlarda, uning doirasida amal qiluvchi omillar ta‘sirida shakllanadi.
- Milliy narxlar-- Alohida mamlakatlar doirasida o‘rtacha ijtimoiy sarf-xarajatlar, milliy bozordagi talab va taklif ta‘sirida shakllanadi.
- Jahon narxlari-- Muayyan tovarlarni ishlab chiqarishga ketgan baynalmilal xarajatlarni, tovarlarning jahon andozasi talablariga mos kelishi darajasini hamda xalqaro bozordagi talab va taklif nisbatini o‘zida aks ettiradi.

- Auksion narxi — auksionda sotilgan tovarning «kim oshdi» narxi.
- Bazis narxi — bitimlar tuzilgan paytda belgilangan narx.
- Birja narxi — birja kotirovkasi va unga birja kontraktidan tovarning sifati, olib kelib berish joyi va boshqa o'zgarishlarga qarab chegirma qilingan yoki ustama qo'shilgan narxlar.



- Kotirovka narxi — maʼlum bir davr uchun qayd etilgan oʻrtacha tipik narxlar. Kontrakt baholari asosida aniqlanadi va yangi bitimlar tuzishda (jumladan birjalarda) moʻljal boʻlib xizmat qiladi.
- Hisob-kitob narxi — har bir fyuchers pozitsiyasining shu kunga yagona narxi; savdo tugashining oxirgi daqiqalarida tuzilgan narx bitimlari asosida hisob palatasi tomonidan belgilangan narx.

- Transfert narxlar — bir kompaniyaning sho'ba korxonalari yoki bo'limlari o'rtasidagi tijoratda qo'llaniladigan narxlar.
- Fyuchers narxlari — birjada fyuchers bitimlarida qo'llaniladigan narxlar.
- Ayirboshlash narxi — ma'lum bir turdagi tovar va xizmatlarni boshqasiga ayirboshlash uchun beriladigan tovar va xizmatlar miqdoriga belgilanadi.



O‘zbekistonda narxlarni erkinlashtirish bosqichlari:

I bosqich. 1992 y. – keng doiradagi ishlab chiqarish vositalari, ayrim turdagi xalq iste‘mol mollari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning kelishilgan narxlari (tariflari)ga o‘tildi.

Aholini himoyalash maqsadida cheklangan doirada oziq-ovqat va sanoat tovarlari narxlarining chegarasi belgilab qo‘yildi.

II bosqich. 1993g. – kelishilgan ulgurji narxlarni davlat tomonidan tartibga solish to‘lig‘icha to‘xtatildi.

III bosqich. 1994y. oktabr-noyabr – xalq iste‘mol mollari asosiy turlarining narxi erkin qo‘yib yuborildi, transport va kommunal xizmati tariflari ko‘tarildi.

Etiboringiz uchun raxmat